

RAQAMLI SAVDO VA INVESTITSIYA KELISHUVLARIDAN KELIB CHIQUADIGAN MA'LUMOTLAR MAXFIYLIGI BILAN BOG'LIQ HUQUQIY MASALALAR

Pirmamatova Maftuna O'ktamovna

Master's student of Tashkent State University of Law

E-mail: maftunpirmamatova94@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12546568>

Annotatsiya. Ushbu tezisda xalqaro tijorat va investitsiya huquqida raqamli shartnomalarda qo'llaniladigan ma'lumotlar maxfiyligi va ularni tartibga solishdan kelib chiqadigan munosabatlar tahlil qilinadi. Ma'lumotlar maxfiyligi tushunchasi ham shaxsiy, ham tijoriy ma'lumotlarning maxfiyligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, ma'lumotlar maxfiyligi yuzasidan xalqaro darajadagi tartibga solish hujjatlari va aynan shu mavzuga aloqador bir qancha holatlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xalqaro tijorat huquqi, xalqaro investitsiya huquqi, raqamli shartnoma, konfidentsiallik, maxfiy axborot, JST, GDPR, CCPA, USMCA, Cambridge Analytica Ltd., AQSh Federal Savdo Komissiyasi, Personal Data Directive, kripto-aktivlar.

Аннотация. В данной тезисе анализируются отношения, возникающие из регулирования конфиденциальности данных и использования цифровых контрактов в международном коммерческом и инвестиционном праве. Концепция конфиденциальности данных относится к конфиденциальности как личных, так и коммерческих данных. При этом также анализируются международные нормативные документы о конфиденциальности информации и несколько случаев, связанных с этой темой.

Ключевые слова: международное коммерческое право, международное инвестиционное право, цифровой контракт, конфиденциальность, секретная информация, WTO, GDPR, CCPA, USMCA, Cambridge Analytica Ltd., Федеральная торговая комиссия США, Директива о персональных данных, криптоактивы.

Bugungi kunda butun dunyoda internet har qanday ma'lumotga kirish va ko'rishni har qachongidan oson va tezroq qilgani sir emas, albatta. Jismoniy shaxslar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini onlayn ravishda bilib, ba'zan bilmagan hollarda turli xil maqsadlarda, masalan, tovarlar va xizmatlarni sotib olish, ko'ngilochar o'yinlar o'ynash, elektron ta'lim yoki davlat xizmatlaridan foydalanish uchun taqdim qilmoqdalar. Ijtimoiy munosabatlar tobora ko'proq tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda – ayniqsa, ijtimoiy media platformalarida. Bu yangi imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligiga ham xavf tug'dirmoqda. Mamlakatlar bo'ylab erkin ma'lumotlar oqimini ta'minlaydigan internetning chegarasiz tabiati, shubhasiz, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning natijasi bo'lmish yangilangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mazkur tadqiqot mavzusini tartibga soluvchi bir qator ustuvor qidalar o'rnatildi. Jumladan, Konstitutsiyaning 31-moddasiga ko'ra, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini,

o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.¹

Hozirgi kunda inson va davlatning o'zaro ta'siri shaxsiy ma'lumotlar tizimini raqamlashtirish orqali qurilmoqda va fuqarolarni raqamli profil formatida aks ettirmoqda. Fuqaroning raqamli profili inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish va davlat oldida majburiyatlarini bajarish uchun shaxsiy ma'lumotlar resursidir. U fuqaroning psixologik, hissiy, jismoniy va ijtimoiy xususiyatlarining umumiylikini o'zida aks ettiradi. Raqamli profil ma'lumotlari fuqarolarning moliyaviy farovonligi holatini, davlatdan ijtimoiy yordam olish uchun asoslarning mavjudligini, homiylik yoki nazoratni o'rnatishni, moliyaviy institutlar bilan mumkin bo'lgan o'zaro ta'sir o'lchovini, fuqarolarning martaba o'sishi masalasini hal qilish darajasini va shu kabi boshqa ko'rsatkichlar va parametrlarni aks ettiradi. Jamiyatni raqamlashtirish va transformatsiya qilish samarasini hisobga olgan holda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi tizimini yanada rivojlantirish hamda faoliyatining huquqiy mexanizmini shakllantirish va amalga oshirish talab etiladi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, kiberjinoyatchilikdan himoya qilish va unga qarshi kurashish tizimini shakllantirish zarurati bilan bog'liqdir. Axborot sohasidagi huquqiy tartibga solish holatini o'rganish "ma'lumotlarga cheklangan tarzda kirish" va "ma'lumotlarning maxfiyligi" atamalarining keng qo'llanilishidan dalolat beradi. Ammo "ommaviy axborot", "ommaviy xabar", "ochiq ma'lumotlar", "axborotning ochiqdigi" va boshqa tushunchalar odatda qonunda maxfiylik sohasida yuqoridagi tushunchalarga qarama-qarshi ma'noda qo'llaniladi.² Axborot maxfiyligini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, mehnat, moliyaviy, soliq, jinoyat, jinoyat protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjatlarining tarmoq normalari majmuasi bilan tartibga solinadi.

Cheklangan shaxsiy ma'lumotlarning xususiyatlarini (tabiatini, xossalarini, xarakteristikasini) hisobga olgan holda, qanday ma'lumotlar cheklangan shaxsga doir ma'lumotlar ekanligi to'g'risida olimlar va mutaxassislar V.N.Lopatinning pozitsiyasini qo'llab-quvvatlaydilar:

- ma'lumotning hujjatlashtirilgan bo'lishi;
- axborotning qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga muvofiqdigi;
- himoya choralarining mavjudligi.³

Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi huquqi yaqindan boshlab konstitusiyalarda o'z mustahkamligini topdi, chunki uning kafolatlari va amalga oshirilishi muammolari aynan jamiyatni raqamlashtirish jarayonlari bilan bog'liq. Gap shundaki, shaxsiy kompyuterlarning va mobil telefonlarning ixtiro etilishi va keng qo'llanilishi ma'lumotlarni, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tizimlashtirish va uzatish uchun kengaytirilgan imkoniyatlarni yaratdi. Shu munosabat bilan, jamiyat shaxsiy hayot daxlsizligining ushbu tarkibiy qismining qo'shimcha kafolatlariga o'ta muhtoj bo'lib qoldi. Shaxsiy ma'lumotlarni uzatish, ko'pincha, transchegaraviy xarakterga ega bo'lishiga qaramay, ushbu masalada hali

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-moddasi.//<https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang=1>

² Камалова Г.Г. Правовое обеспечение конфиденциальности информации в условиях развития информационного общества. Москва, 2020. С. 60.

³ И.Л. Бачило, В.Н. Лопатин, М.А. Федотов. Информационное право (Information Law). М. Юридический центр Пресс.2001. С. 487-488.//<https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnoe-pravo-uchebnik>

ham dunyo miqyosida yagona qoidalar mavjud emas. Turli davlatlarda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi huquqini tartibga solishning turfa modellari mavjud⁴.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida hech kim shaxsiy va oilaviy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashishi, uying daxlsizligi, shaxsning sharafi va obro'siga tajovuz qilishi huquqiga ega emasligi belgilab qo'yilgan. Shunga o'xshash qoidalar Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 17-moddasida va Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyaning 8-moddasida bayon etilgan.

Ma'lumotlar maxfiyligi raqamli tijorat va investitsiya shartnomalarida muhim muammo bo'lib, global raqamli iqtisodiyotda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zaruratidan kelib chiqadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun turli asoslar va kelishuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular chegaralar orqali ma'lumotlarning xavfsiz va xavfsiz uzatilishini ta'minlashga qaratilgan. Quyida maxfiylik siyosatining asosiy jihatlarning umumiy ko'rinishi keltirib o'tiladi:

General Data Protection Regulation (GDPR) – umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari. GDPR global miqyosda ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash bo'yicha eng keng qamrovli qoidalaridan biridir. U shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlaydigan ma'lumotlarni to'plash, saqlash va uzatish bo'yicha qat'iy ko'rsatmalarni talab qiladi.⁵ Kompaniyalar ma'lumotlarni qayta ishlash uchun foydalanuvchilarning aniq roziligini olishlari va ma'lumotlarning buzilishi haqida 72 soat ichida xabar berishlari kerak;

Xalqaro savdoda GDPR Yevropa Ittifoqi fuqarolari va yuridik shaxslari bilan tijoriy va investitsion munosabatga kirishganda yuqori ta'sir kuchiga ega bo'ladi va ular joylashgan joydan qat'i nazar, Yevropa Ittifoqi standartlariga rioya qilishni talab qiladi.

California Consumer Privacy Act – Kaliforniya iste'molchilarining maxfiyligi to'g'risidagi qonun (CCPA). CCPA Kaliforniya aholisiga shaxsiy ma'lumotlari, jumladan, qanday ma'lumotlar to'planganligini bilish huquqi, ma'lumotlarni o'chirish huquqi va ma'lumotlarini sotishdan voz kechish huquqini beradi. GDPRga o'xshab, CCPA Kaliforniyadan tashqaridagi korxonalarga, agar ular Kaliforniya aholisi ma'lumotlarini ishlatsa, ularga nisbatan ta'sir qiladi. Bu AQSh bo'ylab ma'lumotlar maxfiyligi standartlari uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi;

US-Mexico-Canada Agreement – AQSh-Meksika-Kanada kelishuvi (USMCA). Bitim raqamli savdoga oid maxsus boblarni o'z ichiga oladi, bunda maxfiylik va xavfsizlikni hurmat qilgan holda ma'lumotlarning chegaralar bo'ylab erkin aylanishiga urg'u beriladi. U ma'lumotlarni mahalliyashtirish talablarini taqiqlaydi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun qonunchilik asoslarini qabul qilishga yordam beradi. Ma'lumotlar maxfiyligi qoidalarini uyg'unlashtirish orqali USMCA a'zo mamlakatlar o'rtasida raqamli savdoni yanada qulayroq qilish va ma'lumotlarni himoya qilishning mustahkam standartlarini ta'minlashga yordam beradi;

Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership – Trans-Tinch okeani hamkorligi bo'yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv (CPTPP). CPTPP elektron tijoratda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish majburiyatlarini o'z ichiga oladi. U ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarga mos keladigan huquqiy bazani qabul qilishni rag'batlantiradi. Ushbu kelishuv a'zo mamlakatlarda ma'lumotlar maxfiyligining qat'iy

⁴ Madiyev F. Raqamlashtirishning konstitutsiyaviy huquq rivojiga ta'sirining asosiy yo'nalishlari. Jamiyat va innovatsiyalar. 2021, 72-78-bet.

⁵ Gauthier Vannieuwenhuysse. Arbitration and New Technologies: Mutual Benefits. Journal of International Arbitration. 2018. 35(1) p. 119–129.//<https://www.semanticscholar.org/paper/Arbitration-and-New-Technologies%3A-Mutual-Benefits-Vannieuwenhuysse/b6c6b9457cd572ca992d569cc4523108f7677a36>

cholarlariga rioya qilishlarini ta'minlash orqali raqamli savdoga ishonchni kuchaytiradi va shu bilan iste'molchilarning transchegaraviy elektron tijoratga ishonchini oshiradi.

Raqamli tijorat va investitsiya shartnomalarida ma'lumotlar maxfiyligi mustahkam me'yoriy-huquqiy baza va xalqaro hamkorlikni talab qiluvchi ko'p qirrali masaladir. GDPR va CCPA kabi asosiy qoidalar ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha yuqori standartlarni belgilaydi va global amaliyotga ta'sir qiladi.⁶ USMCA va CPTPP kabi savdo shartnomalari xavfsiz va samarali raqamli savdoni osonlashtirish uchun ma'lumotlar maxfiyligi qoidalarini o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyotda ishonchni mustahkamlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun global miqyosda izchil va uyg'unlashtirilgan ma'lumotlar maxfiyligi standartlarini ta'minlash muhim bo'lib qolmoqda.

Raqamli tijorat va investitsiya kelishuvlaridan ma'lumotlar maxfiyligiga oid bir nechta masalalarni keltirib o'tish mumkin:

shartnoma tomonlarining raqamli platformadan foydalanish uchun ruxsat bergan shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi;

shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan ma'lumotlarning maxfiyligi;

investitsiya shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarning arbitrajda ko'rilganda sud qarori va boshqa ma'lumotlarning maxfiyligi.

Birinchi holatda tijorat, investitsiya va, umuman olganda, raqamli platformalarda amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlarda tomonlarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish va ularni himoya qilish masalalari nazarda tutilmoqda. Bugungi kunda turli marketpleyslar, platformalar va saytlar foydalanish sharti sifatida shaxsiy ma'lumotlar kiritishni va rozilikni so'rab oladi. Ammo biz bilamizki, marketpleyslar siz ushbu platformadan foydalanish mobaynida o'z algoritmi va qidiruv qiziqishlari orqali siz nimani istaysiz va nima ayni vaqtda sizga kerakli ekanligini aniqlab, shu doirada sizga marketing orqali o'zining reklamalarini chiqarishni boshlaydi. Ushbu holatda marketpleys sizning yoshingiz, jinsingiz, oilaviy holatingiz va qiziqishlaringiz keltirib o'tilgan shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalanadi. Ushbu holatda amalda foydalanilayotgan platformada ushbu algoritmi ishlashi bilan birgalikda, unga aloqador bo'lgan boshqa marketpleys va platformalarda ham ushbu qiziqishlar aks etadi. Xosh, bularning barchasi nimaga asoslanadi? Albatta, bularning barchasi shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish chegaralarining buzilishidan kelib chiqadi. Shu mazmundagi ilgari "SCL USA" nomi bilan tanilgan Cambridge Analytica Ltd. (CA) Britaniyaning siyosiy konsalting firmasi bo'lib, Facebook-Kembrij Analytica ma'lumotlari janjali orqali mashhur bo'lgan. Facebook-Kembrij Analytica kazusida siyosiy konsalting kompaniyasi millionlab Facebook foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini ularning roziligisiz yig'ishdagi roli bilan mashhur bo'ladi. Keyinchalik bu ma'lumotlar siyosiy kampaniyalarda saylovchilarning hatti-harakatlariga ta'sir qilish uchun ishlatilgan. Firma tadqiqotchisi Aleksandr Kogan tomonidan ishlab chiqilgan «Bu sizning raqamli hayotingiz» deb nomlangan Facebook ilovasi orqali ma'lumotlarni yig'adi. Quiz test sifatida taqdim etilgan ilova nafaqat viktorinada qatnashgan foydalanuvchilar, balki ularning Facebookdagi do'stlaridan ham ma'lumotlarni yig'ib, platformaning o'sha paytdagi ma'lumotlar almashish siyosatidan foydalangan. O'sha paytda taxminan 87 million Facebook foydalanuvchisining shaxsiy ma'lumotlari yig'ilgan va huquqlari buzilgan. To'plangan

⁶ Ендовицкий Д. А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика. — М.: Издательство "Финансы и статистика", 2001. — стр 400.// <https://www.advertology.ru/index.php?name=Book&bid=118921>

ma'lumotlar saylovchilarning psixografik profilini yaratish uchun ishlatilgan. Keyinchalik bu profil turli saylovlarda, xususan, 2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovlarida va Buyuk Britaniyadagi Brexit referendumida saylovchilarning qarorlariga ta'sir ko'rsatish maqsadida siyosiy reklama va xabarlarni yo'naltirish uchun ishlatilgan. Cambridge Analytica ovoz berish hatti-harakatlarini manipulyatsiya qilish uchun jismoniy shaxslarga shaxsiylashtirilgan reklama va kontentni ularning psixologik profili asosida yetkazib beruvchi mikro-targetlashni qo'llagan.⁷ Nizo 2018-yilda, Cambridge Analytica ning sobiq xodimi, ma'lumot tarqatuvchi Kristofer Uayli, The Guardian va The New York Times kabi ommaviy axborot vositalariga batafsil ma'lumot berganida ma'lum bo'ldi. Yuzaga kelgan nizo ko'plab tashkilotlar, jumladan, Buyuk Britaniya Axborot Komissarligi Ofisi (ICO), AQSh Federal Savdo Komissiyasi (FTC) va turli Kongress qo'mitalari tomonidan chuqur tekshiruvlar o'tkazdi. Ushbu nizo yuzasidan AQSh Federal Savdo Komissiyasi – FTC Facebookka foydalanuvchi maxfiylikni himoya qilmagani va shaffoflik yo'qligi sababli Facebookni ma'lumotlar buzilishidagi roli uchun 5 milliard dollar jarimaga tortdi. Cambridge Analytica firmasi 2018-yilda butunlay yopilishiga olib kelgan ko'plab huquqiy muammolarga duch keldi. Tomonlar jazoga tortilganiga qaramay, ma'lumotlar va uning ta'siri allaqachon siyosiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatib bo'lgandi.⁸

Nizo natijasi butun dunyo bo'ylab ma'lumotlarning maxfiylikni yanada qattiqroq tartibga solinishiga turtki bo'ldi. 2018-yilda kuchga kirgan Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi reglamenti (GDPR) qisman foydalanuvchilarning roziligi va ma'lumotlar himoyasiga urg'u berdi. Facebook va boshqa texnologiya kompaniyalari shaxsiy ma'lumotlar ustidan shaffoflik va foydalanuvchi nazoratini kuchaytirish uchun ma'lumotlar siyosatini qayta ko'rib chiqdilar. Ushbu o'zgarishlar shunga o'xshash buzilishlarning oldini olishga va foydalanuvchilarning ishonchini tiklashga qaratilgan edi. Cambridge Analytica ishi ma'lumotlar maxfiylik muhimligi, shaxsiy ma'lumotlardan axloqiy foydalanish va raqamli asrda shaxslar huquqlarini himoya qilish uchun mustahkam me'yoriy-huquqiy bazalar zarurligi haqida muhim saboq bo'lib xizmat qiladi. Bu ma'lumotlarning siyosiy natijalarni shakllantirishda o'ynashi mumkin bo'lgan kuchli rolini va kompaniyalarning foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish mas'uliyatini oshirishni ta'kidlaydi.⁹

Shu bilan birga, Yevropada ushbu Kembrij Analytic kazusidan keyin ko'plab ma'lumotlar maxfiylik bo'yicha hujjatlar qabul qilindi. "Shaxsiy ma'lumotlar direktivasi" (Personal Data Directive) Yevropa Ittifoqining ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha 95/46/EC direktivasiga taalluqlidir. 1995-yilda qabul qilingan ushbu direktiva Yevropa Ittifoqida shaxslarning shaxsiy hayoti va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan. U ma'lumotlarni qayta ishlashning asosiy tamoyillarini, jumladan, ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik huquqlari va Yevropa Ittifoqi hududida ma'lumotlarning erkin harakatlanishiga qo'yiladigan talablarni belgilab berdi.¹⁰ 95/46/EC direktivasi 2018-yil 25-mayda Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament (GDPR) bilan almashtirildi. GDPR Yevropa bo'ylab ma'lumotlarni himoya

⁷Social Media and Crisis Management: The Case Study of Cambridge Analytica.// <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/1083573>

⁸ The guardian jurnali, Kembrij Analitica ishi fayllari.2018.//<https://www.theguardian.com/news/series/cambridge-analytica-files>

⁹The New York Times jurnali. "Facebook and Cambridge Analytica: What You Need to Know as Fallout Widens".//<https://www.nytimes.com/2018/03/19/technology/facebook-cambridge-analytica-explained.html>

¹⁰Yevropa Komissiyasining ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha direktivasi 95/46/EC. //https://ec.europa.eu/info/law/law-topic/data-protection/reform/what-does-data-protection-reform-package-consist/data-protection-directive_en

qilish qonunlarini modernizatsiya qilish, jismoniy shaxslar ma'lumotlarini yanada kuchliroq himoya qilish va biznes uchun yanada aniqlik kiritishni maqsad qilgan.

Quyidagi ma'lumotlarda 95/46/EC direktivasi va GDPR o'rtasidagi asosiy farqlarni ajratib olish lozim:

reglament va direktiva. GDPR reglamentdir, ya'ni milliy qonunchilikka o'tkazishni talab qiladigan direktivadan farqli o'laroq, u barcha Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda milliy qonunchilikka ehtiyoj sezmasdan bevosita qo'llanilishi mumkin;

hududiy doirasi. GDPR kompaniyaning joylashgan joyidan qat'i nazar, Yevropa Ittifoqida yashovchi ma'lumotlar subyektlarining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlovchi barcha kompaniyalar uchun amal qiladi;

jarimalar va jazo. GDPR talablarga rioya qilmaslik uchun sezilarli darajada yuqori jarimalarni joriy qiladi, bunda qaysi biri kattaroq bo'lsa, yillik global aylanmaning 4 foizigacha yoki 20 million yevro miqdorida jarima solinadi;

ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xodimlar (DPO). GDPRga ko'ra, ba'zi tashkilotlar ma'lumotlarni himoya qilish strategiyalari va muvofiqlikni nazorat qilish uchun ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xodimlar tayinlashlari shart.¹¹

Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha direktiva 95/46/EC Yevropa Ittifoqida ma'lumotlarni himoya qilish uchun asos yaratdi, bu GDPR tomonidan sezilarli darajada mustahkamlandi va kengaytirildi. GDPRga o'tish ma'lumotlar maxfiyligining rivojlanayotgan manzarasini aks ettiradi, raqamlashtirish va global ma'lumotlar oqimi bilan bog'liq yangi muammolarni hal qiladi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda raqamlashtirishga, shuningdek, raqamli iqtisodiyotga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan qulay investitsion muhitga qaramasdan mamlakatimizda ko'plab muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar, asosan, raqamlashtirish sharoitida shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, raqamli shartnomalarni tartibga solish, shu bilan birga raqamli tijorat va investitsiya shartnomalarini tuzish uchun qulay platformalar va muhitni shakllantirish muammolari yuzaga kelmoqda. Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan yana biri smartkontraktlar, kriptovalyuta aylanmasini amalga oshirish, o'zbek provayderlarining kuchsizligi kabi masalalar bo'lmoqda.

References:

- 1.1. Rustambekov I. Xalqaro shartnomalar xalqaro xususiy huquqning manbai sifatida // Jamiyat va huquq. Toshkent davlat yuridik universiteti yosh olimlar ilmiy maqolalari to'plami. – 2014. – № 1. – B. 23;
- 1.2. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.:TDYU, 2019. – 354 bet;
- 1.3. *Eshdavlatova Z.N.* Raqamli texnologiyalar davrida shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish. Toshkent, 2022.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro konvensiyalar

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;

¹¹ Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari (GDPR) haqida umumiy ma'lumot.//<https://gdpr.eu/>

- 2.2. O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida" O'RQ-701-sonli Qonuni;
- 2.3. 03.07.2018-yildagi PQ-3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori;
- 2.4. "Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlashda jismoniy shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa Konvensiyasi. 2016-yil 27-aprel.

III. Kitob, ilmiy nashrlar va to'plamlar

- 3.1. Камалова Г.Г. Правовое обеспечение конфиденциальности информации в условиях развития информационного общества. Москва, 2020;
- 3.2. Витрук Н.В. Общая теория юридической ответственности. М., 2008;
- 3.3. Селезнева Г.В. Проблемы уголовной ответственности за разглашение тайны усыновления по законодательству отдельных зарубежных стран // Вестник Челябинского государственного университета. Право. 2013;
- 3.4. Фатьянов А.А. Тайна как социальное и правовое явление. Ее виды // Государство и право. 1998.

IV. Elektron ta'lim resurslari

- 4.1. www.lex.uz
- 4.2. www.norma.uz
- 4.3. www.wikipedia.org
- 4.4. www.gdpr-info.eu
- 4.5. www.britannica.com
- 4.6. www.skyflow.com
- 4.7. www.cyberleninka.ru
- 4.8. <https://arbitrationlaw.com>
- 4.9. <https://chamber.uz>;
- 4.10. <https://globalarbitrationreview.com>;
- 4.11. <https://nrm.uz>;

